

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH FAOLIYATINING MA‘MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Alixonov Bexzod Nizamidinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Telefon: +998901326556

allixonbexzod@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20527282>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash faoliyatining ma‘muriy-huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish yo‘llari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Amaldagi normativ-huquqiy baza, vakolatli organlar faoliyati hamda ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba va raqamli boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali transport xavfsizligini oshirish bo‘yicha taklif va xulosalar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: temir yo‘l transporti, xavfsizlik, ma‘muriy-huquqiy tartibga solish, normativ-huquqiy baza, davlat organlari, institutsional hamkorlik, raqamli texnologiyalar, xorijiy tajriba.

Temir yo‘l transportining rivojlanishini jadallashtirish, mavjud muammolar va huquqiy tartibga solish tizimining ehtiyojlari, shuningdek innovatsion texnologiyalardan foydalanish temir yo‘l transporti obyektlarida jamoat xavfsizligini ta‘minlash masalalarida yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Xavfsizlikni ta‘minlashga tizimli yondashuv temir yo‘l transportining barcha obyektlarining xavfsiz faoliyatini himoya qilish bo‘yicha samarali faoliyat jarayonini tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Dissertatsiyaning oldingi paragraflarida ta‘kidlanganidek, temir yo‘l transportida jamoat xavfsizligini ta‘minlashning eng muhim vositasi va faoliyat yo‘nalishlaridan biri uning ma‘muriy-huquqiy tartibga solinishidir.

Olimlarning ta‘kidlashicha, O‘zbekistonda hozircha yagona va uyg‘un davlat boshqaruvi organlari tizimi to‘liq shakllanmagan, ularning faoliyatida kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu “O‘zbekiston–2030” strategiyasi maqsadlariga erishishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ularning faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari zamonaviy talablarga javob bermaydi, boshqaruv organlarining o‘zaro hamkorligi va o‘zaro nazoratining huquqiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning “raqamli yetuklik” darajasini ta‘minlashning yuqori ahamiyatini ta‘kidlab, I. Murakayev zamonaviy kompyuter texnikasi, kompyuter trenajyorlari, videokonferensaloqa va masofaviy ta‘lim tizimi, telemarkazli media studiya, modellashtirish va simulyatsiya vositalari bilan jihozlangan O‘quv-uslubiy vaziyat markazi faoliyatini tasvirlaydi. Shu munosabat bilan, temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha vaziyat markazi shaklidagi ixtisoslashtirilgan tuzilmani tashkil etish zarur, deb hisoblaymiz. Mazkur vaziyat markazining asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: kriminologik vaziyatning rivojlanish tendensiyalarini, xavf va tahdidlarni kuzatish, baholash va aniqlash; aniqlangan tahdidlarni bartaraf etish yoki minimallashtirish bo‘yicha qarorlar ishlab chiqish; holatga uzoq muddatli va tezkor munosabat bildirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar shakllantirish hamda zarur tashkiliy-huquqiy choralarni qabul qilish.

Bu esa temir yo‘l transporti obyektlaridagi vaziyatni o‘rganish va baholash jarayonini tizimli asosda yo‘lga qo‘yish, uning rivojlanish variantlarini bashorat qilish va modellashtirish, mavjud

muammolarni aniqlash, mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish va xavfsizlikka yetkaziladigan zararni minimallashtirish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Markaz faoliyatining natijalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: temir yo'l transporti obyektlaridagi jinoyatchilik holatini yaxshilash; huquqni muhofaza qilish faoliyatini optimallashtirish va samaradorligini oshirish; jamoat xavfsizligining zarur darajasini ta'minlash; jamoat xavfsizligini ta'minlovchi raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi darajasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari, favqulodda-qutqaruv xizmati va boshqa ixtisoslashgan xizmatlarning samarali faoliyatiga ham katta darajada bog'liqdir. Aynan ularning muvofiqlashtirilgan faoliyati temir yo'l transporti obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bu esa ushbu sohada ma'muriy-huquqiy tartibga solish va nazorat subyektlari ro'yxati keng bo'lib, faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan cheklanmasligini anglatadi. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlash bo'yicha bajariladigan funksiyalarning hajmi va xarakteriga ko'ra, asosiy subyekt ichki ishlar organlari ekanini tan olish kerak. Shunday qilib, temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi holati transportdagi ixtisoslashgan ichki ishlar organlari faoliyatiga sezilarli darajada bog'liqdir.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi turli xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishda temir yo'l transportining faoliyat yuritish xususiyatlarini inobatga olish, xavfsizlikni ta'minlashda foydalaniladigan imkoniyatlar va resurslarni baholash zarur. Masalan, kriminogen vaziyatni muntazam kuzatish va tahlil qilish, uning yaqin va uzoq istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini baholab borish muhimdir.

Bizning fikrimizcha, buning uchun quyidagi omillar va shart-sharoitlarni har tomonlama o'rganish va baholash zarur:

- kunning vaqti, hafta va yil davri, chunki ular temir yo'l transporti obyektlarida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning hajmi va xarakteriga ta'sir qiladi (tungi vaqt, bayram va dam olish kunlari, tig'iz soatlar va boshqalar);

- temir yo'l transporti harakatining jadvali va intensivligi, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlarining faoliyati va hokazo;

- temir yo'l transportida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etayotgan kuch va vositalarning joylashtirilishi, tayyor holatda bo'lishi va tayyorgarlik darajasi;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (transport va hududiy) o'zaro hamkorlik darajasi va joylashuvi, zarur hollarda ularni huquq-tartibotni ta'minlashga jalb etish imkoniyatlari;

- qo'shimcha kuchlarni (jamoatchilik, OAV va boshqalar) jalb etish imkoniyatlari.

Ushbu masalada monitoring va nazorat katta ahamiyatga ega. Mutaxassislar temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi bilan bog'liq kamchiliklar va huquqbuzarliklarni aniqlash muhimligini ta'kidlaydilar. Bunday nazoratning yo'qligi yoki past darajada amalga oshirilishi jamoat xavfsizligi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mansabdor shaxslarning javobgarliksizligiga, o'z xizmat majburiyatlarini loqaydlik bilan bajarishiga, temir yo'l harakati qoidalarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi. Aniqlangan huquqbuzarliklarga o'z vaqtida munosabat bildirish ham muhimdir. Masalan, faqatgina 2020-yilda temir yo'l transporti obyektlarida 89 ta tekshiruv o'tkazilib, ularning natijasida xavfsizlik qoidalarining buzilishi bilan bog'liq 7 878 ta kamchilik aniqlangan, ularni bartaraf etish bo'yicha chora ko'rish topshirilgan. Biroq shulardan 1 576 tasi belgilangan muddatda bartaraf etilmagan. Mazkur masalada monitoring va nazorat katta ahamiyatga ega.

Aniqlangan kamchiliklarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 113¹ va 250¹-moddalar bilan to'ldirildi. Ular temir yo'l transporti va metropolitenlarda harakat xavfsizligini tashkil etish qoidalarini buzish hamda belgilangan talablarni bajarmaslik uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Bu esa yo'lovchilarning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi omillarni oldindan ogohlantirish va o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda vokzallarda xavfli (portlovchi, narkotik va boshqa) modda hamda vositalarni aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy texnik vositalar va uskunalar yetarli emas. Shu bilan birga, bunday vositalardan foydalanish salohiyati juda yuqori. Masalan, yirik vokzallarga portlovchi modda bug'larini aniqlovchi gaz tahlilchilari, statsionar metallodetektorlar, maxsus rentgen uskunalari, radiometrik ko'zdan kechirish majmualari kabi texnik vositalarni joylashtirish zarur. Bundan tashqari, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida temir yo'l transportining eng muhim obyektlarini zamonaviy kirish va chiqishni boshqarish tizimlari, qo'riqlovchi yoritish, qo'riqlovchi va signalizatsiya tizimlari va boshqa vositalar bilan jihozlash lozim.

Bu yerda biz so'nggi yillarda mamlakatimizda, ayniqsa, turistik markazlarda faol amalga oshirilayotgan temir yo'l transporti obyektlari (avvalo — vokzallar) qurilishi yoki rekonstruksiya loyihalash bosqichidayoq hal etilishi zarur bo'lgan muammoni qayd etish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki vokzallar va shunga o'xshash boshqa obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalari kompleks xarakterga ega bo'lib, tizimli yondashuvni talab etadi. Shu munosabat bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatda quyidagi talabni mustahkamlashni taklif etamiz: vokzallarni qurish yoki rekonstruksiya qilishni loyihalash jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga muhofaza qilishning muhandislik-texnik vositalari, aloqa vositalari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash hamda ularni soz holatda saqlash talablari va shartlarini kiritish zarur. Bunda mazkur xarajatlarni moliyalashtirish temir yo'l transporti tashkilotlari yoki tegishli obyektlarning egalari zimmasiga yuklatilishi, ularni o'rnatish va ishga tushirish ustidan nazorat esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklanishi lozim.

Shuningdek, ushbu normativ-huquqiy hujjatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentining Transportda xavfsizlikni ta'minlash xizmati) vakolatlarini ham mustahkamlash lozim. Ular xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha texnik vositalarning ro'yxatini, ularning texnik xususiyatlari va miqdorini shakllantirish, shuningdek, ularni transport infratuzilmasi elementlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bazalari bilan integratsiyalash uchun mas'ul bo'lishi kerak. Mos vositalar va tizimlarni foydalanishga topshirish to'g'risidagi dalolatnomalar ushbu departament xizmati vakillari tomonidan imzolanishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirining 2023-yil 3-avgustdagi yildagi "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yuk tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 22-son buyrug'i bilan tasdiqlangan qoidalarining 417-bandiga ko'ra tijorat dalolatnomalarida quyidagi holatlarni tasdiqlash tartibi belgilangan: yukning haqiqiy nomi, vazni yoki joylari soni tashish hujjatida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan mos kelmasligi; yukning buzilishi yoki shikastlanishi; yukning hujjatsiz yoki hujjatlarning yuksiz aniqlanishi; o'g'irlangan yukning temir yo'l transportiga (tashuvchiga) qaytarilishi; yukni hujjatlar bo'yicha topshirish ishlari yuk idorasida (kassada) rasmiylashtirilganidan so'ng temir yo'l transporti (tashuvchi) tomonidan shoxobcha temir yo'liga yuk 24 soat mobaynida topshirilmaligi. fikrimizcha, qoidalarga yuqoridagi holatlarda tijoriy dalolatnomalar jinoyat haqidagi xabar, ma'lumot bo'lishi mumkinligi inobatga olib, mazkur

tijorat dalolatnomalarini tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borishlik uchun O'zbekiston Respublikasi IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash Departamenti tuzilmalariga topshirishga oid norma kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Temir yo'l transportida jamoat xavfsizligi holatiga huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalarning turi va qat'iyiligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, temir yo'l izlariga turli buyumlarni qo'yish yoki poyezdlarning relsdan chiqishiga olib keladigan boshqa harakatlar potentsial xavfli xarakterga ega bo'lib, ulkan zarar yetkazishi mumkin. Biroq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 113-moddasida poyezdlar harakatining buzilishiga, shuningdek, temir yo'l yo'llarining, qor himoya to'siqlarining va boshqa yo'l obyektlari, inshootlari hamda signalizatsiya va aloqa qurilmalarining shikastlanishiga olib keladigan harakatlar uchun jarima jazo chorasini — bazaviy hisoblash miqdorining yarmidan bir baravarigacha — belgilagan. Ma'lumki, bunday jazo chorasini jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslar xodimlari uchun yetarli deb bo'lmaydi, chunki u yetkazilgan zararining darajasiga mos emas. Yetkazilgan zarar o'nlab million so'mlarni tashkil etishi, uni bartaraf etish esa katta resurslar, kuch va vaqt talab etishi mumkin. Shu sababli, mazkur huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, transport vositalari, bagaj, yuk va qo'l yuklarini, yo'lovchilar hamda boshqa tashrif buyuruvchilarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish huquqiga ega bo'lgan vakolatli organlar ro'yxati, ko'rik o'tkazish tartibi, shuningdek, yo'lovchilar va tashrif buyuruvchilarning temir yo'l stansiyalarida bo'lish qoidalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 159-son qarori bilan "Temir yo'l vokzallarida (stansiyalarida) yo'lovchilar va tashrif buyuruvchilarning qo'l yuklari, bagajlarini ko'rikdan o'tkazish tartibi hamda ularning temir yo'l vokzallarida (stansiyalarida) bo'lish qoidalari to'g'risida nizom" tasdiqlangan. Unda ko'rik o'tkazish vakolatiga ega xodimlar sifatida Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti xodimlari, Milliy gvardiya va "O'zbekiston temir yo'llari" AJning harbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasi xodimlari belgilangan (2-band).

Bizning fikrimizcha, ushbu normani aniqlashtirish lozim, chunki "O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"ning 9-bandi Milliy gvardiyaning funksiyalariga temir yo'l transportida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashni kiritmaydi. Takrorlanishni oldini olish va aniqlik kiritish, shuningdek, qonunchilik texnikasi talablariga muvofiq, yuqoridagi nizomdan Milliy gvardiya haqidagi eslatmani chiqarib tashlash zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Lex.uz.
3. Qutibaeva E.D. Ma'muriy huquq: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yuridik nashriyoti, 2019.
4. Gimmelreyx O.V. Transport xavfsizligi: huquqiy tartibga solish va davlat nazorati. – Moskva: Nauka, 2018.
5. Xolmurodova D., Karimov A. Temir yo'l transporti xavfsizligi: milliy va xorijiy tajriba. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2023.
6. Ichki ishlar vazirligi. Transport obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2023.

7. Transport vazirligi. Temir yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash qoidalari. – Toshkent, 2022.

